

Abu Nasr Forobiy Asarlarining Barkamol Avlodni Tarbiyalashdagi Ahamiyati

Ikromova Dilfuza Abdirasulovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk qomusiy olimlarimizdan biri bo'lmish Abu Nasr Forobiyning hayot yo'li, ijodiy merosi, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlari, ta'limiy-tarbiyaviy hamda pedagogik fikrlarining bugungi kun ta'lim tizimidagi ahamiyati, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida alloma asarlarining o'rni, bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo'lmish barkamol, yetuk, zamon talabi darajasidagi raqobatbardosh avlodni shakllantirishdek maqsadni oldiga qo'ygan, bunda Farobiyning komil insonni tarbiyalashga qaratilgan fikrlaridan ta'lim jarayonida keng foydalanish imkoniyatlari yoritgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, bilim, komil inson, barkamol shaxs, xushfellik, shirinsuxanlik.

Abu Nasr Forobiyning pedagogik merosi boy imkoniyatlarga ega bo'lib, undan ta'lim-tarbiya sohasida o'rinni foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, tarbiya darsida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda allomaning asarlaridan, uning hikmatlaridan foydalanish imkoniyatlari katta. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlarida komil inson tarbiyasi alohida o'rin egallaydi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Ixso-al-ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolotga yetkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini ta'kidlaydi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana shunday deydi: "Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazriy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir".

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqri qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi hislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko'rishimiz mumkin. Forobiy "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi, deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika

¹ Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti. Pedagogika yo'nalishi magistranti



odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'lda olib boorish uchun aqlni to'g'irlab turadi, deydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish belgilab qo'yildi.

Qarorga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlil g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda – 2020-2021-o'quv yilidan , 10-11-sinflarda esa – 2021-2022-o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.

Qomusiy olimning ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik qarashlari aks etgan asarlaridan, beqiyos fikrlaridan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fani negizida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida keltirilgan 8-sinf "Tarbiya" fani "Go'zal tarbiya tamoyillari" mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasi orqali yuqoridagi fikrlarimizning amaliy ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

Sinfi: 8- sinf Tarbiya 2024-yil Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Go'zal tarbiya tamoyillari			
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: odob, axloq, xushxulqlik, shirinsuhanlik			
Mavzuga ajratilgan vaqt: 45 daqiqa			
Mavzuning qisqacha ta'rifi: o'quvchilarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash			
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:			
Dars turi: yangi bilim beruvchi			
Metod: Tushuntirish, savol –javob, bahs-munozara, "BBB" texnologiyasi, "Klaster" metodi			
Jihozi: darslik va o'quv qurollari,rag'batlantiruvchi kartochkalar, mavzuga oid rasmlar, multimediali ilova,ko'rgazmali qurollar			
Nazorat: o'quvchilarning xulq-atvori va darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: o'quvchilar baholari reyting mezoni asosida baholanib, dars yakunida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari:			
Ta'limiy: o'quvchilarga odob, axloq, chiroyli xulqlilik, tarbiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritib berishda o'tmish ajdodlarimizning hikmatli so'zlaridan foydalanish, ularning ijodiy merosi hamda qimmatli fikrlari haqida tasavvurlarni shakllantirish;			
Tarbiyaviy: shaxs kamolotga yetishishi uchun avvalo go'zal tarbiya, xushxulqlik, axloqiylik xatti-harakatlar jamlanmasiga bog'liqligini o'quvchilarning ongu shuuriga buyuk mutafakkirlarimizning bebaho asarlaridagi qimmatli fikrlari orqali singdirish;			
Rivojlantiruvchi: davlatimizning, jamiyatimizning eng oliy maqsadi bo'lmish barkamol shaxsni tarbiyalash har bir kishining hayoti mazmuniga aylanishiga erishish			
Tayanch kopetentsiya: <i>Ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetensiya</i>			
Fanga oid kompetentsiya: <i>Ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik, mafkuraviy immunitetga ega bo'lish</i>			
Kutilayotgan natija:			
Dars yakunida o'quvchilarda insoniylik sifatlarini, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish			
Dars jarayoni va texnologiyasi:			
Ishning nomi	Bajarilgan ish nomi	Metod	Ajratilgan vaqti
1-bosqich: Tashkiliy qism	Salomlashish, o'quvchilarni guruhlariga ajratish, navbatchi hisoboti,	Suhbat	2 daqiqa



	o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat qilish.		
2-bosqich: Uy vazifasini tekshirish va mustahkamlash	Uyga berilgan mavzuni navbat bilan so'zlatish	Og'zaki	5 daqiqa
	O'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazish	“Koptok” o'yini	3 daqiqa
3-bosqich Yangi mavzuning bayoni Dam olish daqiqasi	Yangi mavzu bayoni o'qituvchi tomonidan mavzuga mos ko'rgazmalar orqali tushuntiriladi	Og'zaki Tushuntirish	5 daqiqa 5 daqiqa
	Mavzu mazmuniga mos video rolik namoyish etish	Amaliy	5 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Savol-javob o'tkazish	“Omadli kartochka” o'yini	5 daqiqa
	Mavzu yuzasidan fikr almashish, umumiy xulosaga kelish	Munozara	7 daqiqa
5-bosqich Darsni yakunlash va baholash	O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash	Suhbat	5 daqiqa
6-bosqich Uyga vazifa	Uyga vazifa mavzuni o'qib o'rganish, mazmuniga mos sharh mutafakkirlarining hikmatli so'zlaridan topib kelish	Suhbat	3 daqiqa

8-sinf Tarbiya

Mavzu:Go'zal tarbiya tamoyillari

Darsning maqsadi

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga odob, axloq, chiroyli xulqlilik, tarbiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritib berishda o'tmish ajdodlarimizning hikmatli so'zlaridan foydalanish, ularning ijodiy merosi hamda qimmatli fikrlari haqida tasavvurlarni shakllantirish;

Tarbiyaviy maqsad: shaxs kamolotga yetishishi avvalo go'zal tarbiya, xush xulqlik, axloqiy xatti-harakatlar jamlanmasiga bog'liqligini o'quvchilarning ongu shuuriga buyuk mutafakkirlarimizning bebaho asarlaridagi qimmatli fikrlari orqali singdirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: davlatimizning, jamiyatimizning eng oliy maqsadi bo'lmish barkamol shaxsni tarbiyalash har bir kishining hayoti mazmuniga aylanishiga erishish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning usuli: suhbat, bahs-munozara, “BBB” texnologiyasi, “Klaster “ metodi, “Koptok” o'yini, savol-javob.

Darsning jihozi:darslik, tarqatma materiallar, ko'rgazmali vositalar, rag'bat kartochkalari, mavzuga oid taqdimotlar, elektron doska.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism: salomlashish, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Qunt va qat'iyat deganda nimani tushunasiz?



2. Tabiat va inson sog'ligi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
3. Qanday holatlarda axloqi "go'zal" deyiladi?
4. Insonga xos bo'lgan fe'l-atrof deganda nimani tushunasiz?
5. Atrofigizdagi insonlarda qanday xislatlar bo'lishini istar edingiz?
6. Inson muvaffaqiyatga erishishi uchun odob qoidalarini chetlab o'tishi mumkinmi?

III. Yangi mavzu bayoni.

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Bu davrda insonlar o'rtasidagi munosabatlar natijasida etnik sabr-toqat, bag'rikenglik, mehr-oqibat, halollik bilan kun kechirish kabi fazilatlar shakllanib, avloddan-avlodga o'tib sayqal topgan. Ayniqsa, kattalarga, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarildi.

Yaxshilik- go'zal axloqiy fazilat sirasiga kirib, inson umri davomidagi ijobiy va ezgu ishlari, munosabatlarining yig'indisini tashkil etadi. Yaxshilik – shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

Xushfe'lilik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar yaxshilikni yuzaga chiqarish nuqtayi nazaridan g'oyat muhmdir. Har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qarmaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Balki o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazli bo'lish, vijdonlilik, kamtarinlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Aqlli farzandga xos qanday fazilatlarini bilasiz? Aqlli deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Tarbiyaga oid qanday qadriyatlarni bilasiz?
3. Qanday tarbiyani go'zal tarbiyani asosi deyish mumkin?
4. Buyuk qomusiy olimlarimizdan kimlarning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini bilasiz?
5. Jamiyatdagi axloqiy mezonlar haqida so'zlab bering.
6. Tarbiyaning inson kamolotidagi ahamiyati qay darajada deb o'ylaysiz?

V. Darsni yakunlash.

O'quvchilarni baholash. Dars davomida faollik ko'rsatgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa. Mavzuni o'qib so'zlashga tayyorlanish, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid hikmatlarini o'rganib kelish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyo fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lmish Abu Nasr Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuqori darajada baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, balki cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, kishilik jamiyati tarixida yorqin iz qoldirgan yunon olimlarining, ayniqsa Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning bir qanchasini arab tiliga tarjima qildi. Antik davr olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'rganmay turib, fan va madaniyatni



rivojlantirish mumkin emasligini juda yaxshi anglagan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining , serqirra olim-u ijodkorlarning davomchisi , o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga molikdir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l - ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat- nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ldi, deb ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent, Yozuvchi, 2001
3. Pedagogika tarixi" darslik K.Hoshimov, S.Nishonova Toshkent-2005.
4. "Umumiy pedagogika" darslik B.X.Xodjaev Toshkent 2017.

